

## MAKTABGACHA TA’LIM YOSHIDAGI BOLALARNING TASHABBUSKORLIGINI SHAKILLANTIRISHDA OILAVIY MUNOSABATLARNING O’RNI

ADPI “Pedagogika va psixologiya” kafedrası  
o’qıtuvchısı Kadırova Omadxon Sobırjonovna

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19355071>

**Annatatsiya** Annotatsiyada oiladagi sog’lom psixologik muhit, ota-onalarning tarbiyaviy uslublari, o’zaro hurmat va qo’llab-quvvatlashga asoslangan munosabatlarning bola shaxsining ijtimoiy-faollik xususiyatlariga ta’siri ochib beriladi. Shuningdek, Oila va xotin-qizlar qo’mitasi faoliyati doirasida oilani mustahkamlash va farzand tarbiyasini takomillashtirishga qaratilgan yondashuvlarning ahamiyati qayd etiladi.

**Kalit so’z** Sog’lom psixologik muxit, o’zaro hurmat, ishtimoiy-faollik, oila, xotin qizlar qo’mitasi, oilani mustahkamlash, farzand tarbiyasi, yondashuvlarning ahamiyati.

**Аннотация:** В данной аннотации раскрывается влияние здоровой психологической атмосферы в семье, воспитательных стилей родителей, а также отношений, основанных на взаимном уважении и поддержке, на формирование социально-активных качеств личности ребенка. Кроме того, отмечается значимость подходов, направленных на укрепление семьи и совершенствование воспитания детей в рамках деятельности Комитета по делам семьи и женщин.

**Ключевые слова:** здоровая психологическая среда, взаимное уважение, социальная активность, семья, комитет по делам семьи и женщин, укрепление семьи, воспитание детей, значимость подходов.

**Annotation:** This annotation highlights the impact of a healthy psychological environment in the family, parental upbringing styles, and relationships based on mutual respect and support on the development of a child's socially active personality traits. It also emphasizes the importance of approaches aimed at strengthening the family and improving child upbringing within the framework of the activities of the Committee on Family and Women’s Affairs.

**Keywords:** healthy psychological environment, mutual respect, social activity, family, Committee on Family and Women’s Affairs, family strengthening, child upbringing, importance of approaches.

Bugungi globallashuv sharoitida jamiyat taraqqiyoti har tomonlama barkamol, mustaqil fikrlaydigan va tashabbuskor shaxslarni tarbiyalashni taqozo etmoqda. Ayniqsa, maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarda tashabbuskorlik, faollik va mustaqil qaror qabul qilish ko’nikmalarini shakllantirish muhim pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Zero, aynan ushbu davr bola shaxsining asosiy sifatleri, ijtimoiy xulq-atvori va hayotiy pozitsiyasi shakllanadigan eng muhim bosqichdir.

Mamlakatimizda maktabgacha ta’lim tizimini takomillashtirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar, jumladan O’zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan me’yoriy-huquqiy hujjatlar va dasturlar bolalarda mustaqillik hamda tashabbuskorlik sifatlarini rivojlantirishni ustuvor yo’nalish sifatida belgilab bermoqda. Nutqlarda Mirziyoyev ota-onalarga qarata “Parenting va ota-ona tarbiyasi ham jamiyatning kelajagi uchun muhim mas’uliyatdir” kabi mazmunli fikrlarni ham takrorlaydi. Ota-ona tomonidan beriladigan tarbiya orqali bolada Qadriyatlar (halollik, hurmat, mas’uliyat), xulq-atvor modeli

(muomala madaniyati, muammolarni hal qilish usuli), emotsional barqarorlik (stressga chidamlilik, o’zini boshqarish), ijtimoiy moslashuv (jamiyatda o’z o’rnini topish), kabi asosiy jihatlar shakllanadi. Agar ota-onalar farzand tarbiyasiga ongli va mas’uliyat bilan yondashsa, natijada sog’lom fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan, jamiyatga foydali shaxslar voyaga yetadi. Aks holda esa tarbiyadagi bo’shliqlar kelajakda ijtimoiy muammolarni keltirib chiqarishi mumkin.

Psixologik nuqtai nazardan qaraganda, bola ko’proq ota-onaning so’zidan emas, balki xatti-harakatidan o’rganadi. Shu sababli “tarbiya” — bu faqat nasihat emas, balki namuna ko’rsatish jarayonidir.

Shu bilan birga, farzand tarbiyasida oilaning o’rni va mas’uliyatini kuchaytirishga qaratilgan tashabbuslar, xususan oila va xotin-qizlar qo’mitasi faoliyati doirasida olib borilayotgan ishlar ham mazkur masalaning dolzarbligini yanada oshiradi. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko’rsatadiki, bolaning tashabbuskorligi avvalo oiladagi psixologik muhit, ota-onalarning tarbiyaviy uslubi, mehr-muhabbat va o’zaro hurmatga asoslangan munosabatlar ta’sirida shakllanadi. Demokratik, qo’llab-quvvatlovchi va rag’batlantiruvchi oilaviy muhit bolada o’z fikrini erkin ifoda etish, mustaqil harakat qilish va yangilikka intilish kabi sifatlarning rivojlanishiga xizmat qiladi. Aksincha, haddan tashqari nazorat yoki befarqlik sharoitida voyaga yetayotgan bolalarda tashabbus ko’rsatish darajasi pasayishi mumkin. “Bola erkinlikda ulg’aymog’i lozim. Haddan tashqari nazorat uning tabiiy rivojlanishini to’xtatadi.”, va “Oilaviy muhit — bolaning hayotiy tajribasi poydevori bo’lib, mehr-shinavandlik va hamkorlik orqali bolada mustaqil fikrlash va tashabbus ko’rsatish shakllanadi.”. Shu nuqtai nazardan, maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarning tashabbuskorligini shakllantirishda oilaviy munosabatlarning o’rnini ilmiy-pedagogik jihatdan o’rganish, mavjud muammolarni aniqlash hamda samarali hamkorlik mexanizmlarini ishlab chiqish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Mazkur maqolada oilaviy munosabatlarning mazmun-mohiyati, ularning bola shaxsiga ta’siri hamda tashabbuskorlikni rivojlantirishga xizmat qiluvchi omillar tahlil qilinadi. Oilaviy munosabatlar — bu ota-ona, aka-uka, opa-singil va boshqa qarindoshlar o’rtasidagi ijtimoiy va psixologik aloqalar majmuasi bo’lib, bolaning shaxsiy xulq-atvori va tafakkurining shakllanishiga to’g’ridan-to’g’ri ta’sir ko’rsatadi. Mazkur munosabatlar quyidagi asosiy funksiyalarni bajaradi. Emotsional qo’llab-quvvatlash: mehr-muhabbat va ishonch muhitining mavjudligi bolaning o’ziga bo’lgan ishonchini oshiradi. Ijtimoiy o’rnak: ota-onalarning o’zaro hurmat, muloqot va loyiq harakatlari bolaga namuna bo’ladi; Motivatsion omil: oilada rag’batlantirish va muvaffaqiyatni qadrlash bolada tashabbuskorlik ruhini mustahkamlaydi; Funktsional pedagogika: ota-onalar bolani kundalik faoliyatlarga jalb qilib, mustaqil qarorlar qabul qilishga o’rgatadi.

Maktabgacha yosh — bolada shaxsiy xatti-harakatlar, ijtimoiy ro’l va erkin fikrlash qobiliyatlari paydo bo’ladigan muhim davrdir. Bu davrda oilaviy omillar bolalarning tashabbuskorligini sezilarli darajada belgilaydi: Demokratik, samimiy va mustahkam oilaviy muhit bolada xavfsizlik hissini shakllantiradi. Bunda bola o’z fikrini bemalol ifoda etishi, xato qilganda qo’llab-quvvatlanishi va muvaffaqiyatlari uchun rag’batlantirilishi kerak. Bunday sharoit bolada tashabbus ko’rsatishga ishonch uyg’otadi. Tarbiya uslublari bolada tashabbuskorlikni shakllantirishga sezilarli ta’sir ko’rsatadi. Masalan, ota-onalar quyidagi yondashuvlarni qo’llaganlarida ijobiy natijalar kuzatiladi: Demokratik yondashuv: bolaning fikrini tinglash; Qo’llab-quvvatlash: muvaffaqiyatsizlikda qiyinchiliklar bilan kurashishga yordam berish; Mustaqillikni rag’batlantirish: kichik vazifalarni o’z bilimi bilan bajarishga imkon berish. Uyda birgalikda o’tkaziladigan ijodiy faoliyat, o’yin-mashg’ulotlar, topshiriqlar bolada mustaqil fikrlash, qat’iyat va kelajakdagi tashabbuslar uchun zarur ko’nikmalarni rivojlantiradi. Oilaviy tarbiyada quyidagi muammolar bolalarning tashabbuskorligini susaytirishi mumkin: Haddan tashqari tartib-qoidalar; Ota-onalar tomonidan bolani haddan ortiq nazorat qilish; O’yin va erkin faoliyat uchun

yetarli vaqt ajratilmasligi; Oiladagi nizolar va stressli vaziyatlar. Bu to‘siqlar bolaning o‘z fikrini erkin ifoda etishi va tashabbus ko‘rsatish darajasini pasaytiradi.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha yosh davrida tashabbuskorlik sifatini rivojlantirish tasodifiy jarayon emas, balki oiladagi ongli, maqsadli va mehrga asoslangan tarbiyaning natijasidir. Shu sababli, har bir oilada bolaga erkin fikr bildirish, mustaqil harakat qilish va ijodiy tashabbus ko‘rsatish imkoniyatini yaratish kelajakda faol, mas’uliyatli va ijtimoiy yetuk shaxsni tarbiyalashning muhim sharti hisoblanadi. Demokratik yondashuv: bolaning fikrini tinglash, qo‘llab-quvvatlash: muvaffaqiyatsizlikda qiyinchiliklar bilan kurashishga yordam berish, mustaqillikni rag‘batlantirish: kichik vazifalarni o‘z bilimi bilan bajarishga imkon berish. Maktabgacha yosh — bolada shaxsiy xatti-harakatlar, ijtimoiy ro‘l va erkin fikrlash qobiliyatlari paydo bo‘ladigan muhim davrdir. Bu davrda oilaviy omillar bolalarning tashabbuskorligini sezilarli darajada belgilaydi

### **Adabiyotlar**

1. O‘zbekiston Respublikasi prezidenti SH.M.Mirziyoevning nutqi-“Parents` attitude towards teachers should change” -29-dekabr-2022y.
2. Sh. Sodiqova — Maktabgacha pedagogika (Toshkent, 2013) 288 betda
3. Jan Jak Russoning “Emil yoki tarbiya to‘g‘risida” (Émile, ou De l’éducation) asari 1762-y
4. Oila pedagogikasi – O. Hasanboyeva 2007 yil.  
*Oilada tarbiya jarayoni, ota-ona mas’uliyati, tarbiyaviy tamoyillar va metodlar haqida darslik sifatida.*
5. Oilada bola tarbiyasining ma’naviy asoslari – I. X. To‘raqulova – 2014 yil.
6. APA, M. Abdulmajidova (2024). ILK O‘SPIRINLIK DAVRIDAGI O‘QUVCHILARNI PSIXOTIPLARIGA QARAB KASBGA YO‘NALTIRISH ISHLARINI OLIB BORISH NAZARIY VA AMALIY JIHATLARI. *Inter education & global study*,(10), 412-418.
7. Abdulmajidova, A. M. (2024). O‘QUVCHILARDA KASBIY KO‘NIKMA VA MALAKALARNI SHAKLLANTIRISH BOSQICHLARI. *Universal xalqaro ilmiy jurnal*, 1(5), 149-151.
8. Sattarova, I. M., & Abdulmajidova, M. (2021). Zamonaviy ilm-fan va ularning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni. *Science and Education*, 2(12), 609-616.